XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun VII-11-74-9-123-K/25 Boyovut tumani

Boyovut tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2025-yil 6-martdagi PQ-93-son qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini taʼminlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Maʼmuriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi** Nizomiga asosan hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2025-yil 6-martdagi PQ-93-son qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini taʼminlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Maʼmuriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi** Nizomiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqib maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Boyovut tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan tayyorlangan taklif loyihasi jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazish uchun ID-107857-son bilan 15 kun muddatga “E-Kengash” elektron tizimi orqali jamoatchilik muhokamasiga (regulation.gov.uz saytida) eʼlon qilinganligi;

muhokama yakunlari bilan jamoatchilik tomonidan takliflar kelib tushmaganligi inobatga olinsin.

3. Boyovut tumanining maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2025-yil 11-iyundagi 1/01-20-sonli yigʻilish bayonini inobatga olib, Boyovut tumanidagi **jami 3 ta** ***(2 ta qisman Yangiavlod MFY dan 159,8 ga va Qarapchi MFY dan 142,6 ga jami 302,4 ga Guliston shahri tarkibiga hamda 1 ta toʻliq Shirin MFY 638,8 ga Shirin shahriga)*** mahalla fuqarolar yigʻinidan 941,2 ga yer uchastkasi Guliston va Shirin shaharlari tarkibiga oʻtkazilishi maqullansin.

5. Boyovut tumanidan Guliston shahri tarkibiga oʻtkazilayotgan yer uchastkalarning chegara chizigʻining tavsifi **1-ilovaga,** kartografik chizmasi **2-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Boyovut tumanidan Shirin shahri tarkibiga oʻtkazilayotgan yer uchastkasining chegara chizigʻining tavsifi **3-ilovaga,** kartografik chizmasi **4-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin..

7. Boyovut tumani bilan chegaradosh boʻlgan Guliston, Yangiyer va Shirin shaharlari hamda Guliston, Mirzaobod va Xovos tumanlari oʻrtasidagi maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi **5-ilovaga** hamda tayyorlangan kartografik chizmasi **6-ilovaga** muvofiq tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi D.Uralova

Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Guliston shahriga qo‘shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan boshlangich 1-nuqtaga tutashadi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°28'27,562", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°46'16,895").*

A dan B gachaGuliston shahri yerlari bilan 1- 5 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 82 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 205 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 211 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 88 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 146 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 155 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 236 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25,359", sharqiy uzoqlik 68°46'54,910").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 126 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 119 metr, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 182 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 115 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 138 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 254 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'39,154", sharqiy uzoqlik 68°47'07,585").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 440 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ng sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 812 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ngra janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 50 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1284 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'45,899", sharqiy uzoqlik 68°48'37,058").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 407 metr masofada qishloq

ichki yo‘liga o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1009 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 401 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 498 metr masofada zovurga o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 360 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 49 metr zovurni kesib o‘tib, Guliston shahri va Boyovut tumani chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'32,448", sharqiy uzoqlik 68°48'56,332").*

B dan D gacha Boyovut tumani yerlari bilan 5 - 12 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

5 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2383 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'35,116", sharqiy uzoqlik 68°48'10,112").*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib aholi tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 78 metr metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 203 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 345 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'21,545", sharqiy uzoqlik 68°48'00,489").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 519 metr masofada zovur va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'23,028", sharqiy uzoqlik 68°47'38,559").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 403 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'10,025", sharqiy uzoqlik 68°47'37,104").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1139 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'13,153", sharqiy uzoqlik 68°46'48,930").*

10 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 353 metr masofada zovurni kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,743", sharqiy uzoqlik 68°46'47,922").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 362 metr masofada zovur va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Guliston shahar, Boyovut va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,953", sharqiy uzoqlik 68°46'24,825").*


D dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 12 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

12 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 813 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'27,562", sharqiy uzoqlik 68°46'16,895").*

Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Guliston shahar tarkibiga qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Shirin shahriga qo‘shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan boshlangich 1-nuqtaga tutashadi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°15'36,731", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°07'37,507").*

A dan B gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 1 - 2 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7-markaziy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 476 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada Do‘stlik kanaliga tutashadi, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3576 metr masofani o‘tib, Toshkent viloyati hamda Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'57,628", sharqiy uzunlik 69°09'08,872").*

B dan D gacha Shirin shahri yerlari bilan 2 - 4 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

2 - nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanali bo‘yidan quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tib, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 969 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 422 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 536 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 178 metr masofada ariqqa o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 874 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'53,407", sharqiy uzunlik 69°07'25,937").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i ariq bo‘yidan avtomobil yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 443 metr masofada ariqqa o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 238 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 7 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr masofada zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 179 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 212 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy yo‘nalishni

o‘zgartirmagan holda 153 metr masofada zovurga o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 517 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 364 metr masofani o‘tib, so‘ngra avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 604 metr masofani o‘tib, Shirin shahri va Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'14,537", sharqiy uzunlik 69°06'22,977").*

D dan A gacha Boyovut tumani yerlari bilan 4 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

4 - nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 985 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'37,130", sharqiy uzunlik 69°06'51,990").*


5 - nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 344 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 316 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 163 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'48,814", sharqiy uzunlik 69°06'56,184").*

6 - nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘idan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 959 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 979 metr masofada 7-markaziy zovurini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'36,731", sharqiy uzunlik 69°07'37,507").*

Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Shirin shahar tarkibiga qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yoʻl boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°28'01,953", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°46'24,825").*

A dan B gachaGuliston shahri yerlari bilan 1- 9 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali temir yoʻldan sharqiy yoʻnalishda 362 metr masofada avtomobil yoʻli va zovurni kesib oʻtib, keyin shimoliy yoʻnalishda 9 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 182 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,743", sharqiy uzoqlik 68°46'47,922").*

2-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali qishloq ichki yoʻlidan shimoliy yoʻnalishda 353 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'13,153", sharqiy uzoqlik 68°46'48,930").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1139 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'10,025", sharqiy uzoqlik 68°47'37,104").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 403 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'23,028", sharqiy uzoqlik 68°47'38,559").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 519 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'21,545", sharqiy uzoqlik 68°48'00,489").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 345 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtib aholi tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab sharqiy yoʻnalishda 203 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 78 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'35,116", sharqiy uzoqlik 68°48'10,112").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qashi chap tomoni bilan 2383 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'28,741", sharqiy uzoqlik 68°49'50,887").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 387 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofani oʻtib, soʻng

yo‘ldan ariqni kesib o‘tadi ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 419 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'54,758", sharqiy uzoqlik 68°49'53,972").*

B dan D gacha Guliston tumani yerlari bilan 9 - 19 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

9 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1777 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'49,975", sharqiy uzoqlik 68°51'09,160").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2791 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'43,053", sharqiy uzoqlik 68°53'07,190").*

11 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1364 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°28'38,960", sharqiy uzoqlik 68°54'04,699").*

12 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘li va kanalni kesib o‘tib, keyin Boyovut zovuriga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3292 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1906 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'59,810", sharqiy uzoqlik 68°57'33,583").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Boyovut zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1426 metr masofani o‘tib, Boyovut zovuri bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'54,800", sharqiy uzoqlik 68°58'32,765").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Boyovut zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 5960 metr masofani o‘tib, R-30 avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 355 metr masofani o‘tib, R-30 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'59,618", sharqiy uzoqlik 69°02'59,141").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i R-30 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3106 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'29,731", sharqiy uzoqlik 69°03'56,562").*

16 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali R-30 avtomobil yo‘lidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 21 metr masofada Do‘stlik kanaliga o‘tadi, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1255 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'48,836", sharqiy uzoqlik 69°04'18,237").*

17 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1197 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'11,652", sharqiy uzunlik 69°04'12,021").*

18 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2114 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 594 metr masofani o‘tib, Toshkent viloyati hamda Guliston, Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan

joy, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'52,944", sharqiy uzunlik 69°04'34,715").*

D dan E gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 19 - 21 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

19 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9699 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 5669 metr masofani o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'44,571", sharqiy uzunlik 69°06'54,412").*

20 - nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanalidan dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va 7-markaziy zovuriga tutashadi, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2600 metr masofani o‘tib, 7-markaziy zovuri bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'36,731", sharqiy uzunlik 69°07'37,507").*

E dan F gacha Shirin shahri yerlari bilan 21 - 26 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

21 - nuqtadan chegara chizig‘i 7-markaziy zovurini kesib o‘tib zovurga o‘tadi va umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 979 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 959 metr masofani o‘tib, “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'48,814", sharqiy uzunlik 69°06'56,184").*

22 - nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 163 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 316 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 344 metr masofani o‘tib, o‘tib, sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'37,130", sharqiy uzunlik 69°06'51,990").*

23 - nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 992 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 73 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'15,850", sharqiy uzunlik 69°06'20,344").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 39 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 258 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 308 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 767 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'25,556", sharqiy uzunlik 69°05'37,425").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i zovur bo‘yidan ariqqa o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 537 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 319 metr masofada tomorq devoriga o‘tib, so‘ngra tomorqa devori bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 44 metr masofada zovurni, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 85 metr masofani o‘tib, Shirin shahri hamda Xovos, Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Janubiy Mirzacho‘l kanali bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'50,303", sharqiy uzunlik 69°05'24,936").*

F dan G gacha Xovos tumani yerlari bilan 26 - 32 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

26 – nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Mirzacho‘l kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 403 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 5997 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'43,184", sharqiy uzunlik 69°01'50,040").*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1225 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'08,590", sharqiy uzunlik 69°01'35,268").*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 662 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali qishloq ichki yo‘lini, zovurni kesib o‘tib tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 740 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 243 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 217 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Mashina 1 kanali bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'27,181", sharqiy uzunlik 69°01'56,228").*

29– nuqtadan chegara chizig‘i Mashina 1 kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2987 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'57,622", sharqiy uzunlik 68°59'57,195").*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i Mashina 1 kanali bo‘yidan dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1660 metr masofada zovuni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'50,432", sharqiy uzunlik 69°00'06,782").*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8837 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4216 metr masofani o‘tib, Yangiyer shahri hamda Boyovut, Xovos tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'27,634", sharqiy uzunlik 68°51'08,312").*

G dan H gacha Yangiyer shahri yerlari bilan 32 - 34 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

32 – nuqtadan chegara chizig‘i zovur bo‘yidan tog‘ri chiziq orqali Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tib tomorqa chegarasiga o‘tadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 355 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni, qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 597 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi va umumiy g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1218 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'46,468", sharqiy uzunlik 68°49'52,819").*

33 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 15 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 20 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ng avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 111 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘ldan ekin yer ko‘tarmasiga o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda ko‘tarma bo‘ylab 63 metr masofada temir yo‘lga tutashadi, keyin temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2911 metr masofani o‘tib, Yangiyer shahri hamda Xovos, Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yo‘l bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'21,940", sharqiy uzunlik 68°49'20,770").*

H dan I gacha Xovos tumani yerlari bilan 34 - 35 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

34 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2543 metr masofani o‘tib, Xovos, Mirzaobod hamda Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'42,274", sharqiy uzunlik 68°48'56,479").*

I dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 35 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

35 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2625 metr masofani o‘tib, temir yo‘l ko‘prigi bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'05,060", sharqiy uzunlik 68°48'31,298").*

36 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 8458 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'32,192", sharqiy uzunlik 68°47'10,424").*

37 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 4743 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,953", sharqiy uzunlik 68°46'24,825").*

Xalq deputatlari Boyovut tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-74-9-123-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI

